



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

DUNYOVIYLIK VA DUNYOVIY DAVLAT TUSHUNCHALARI

Yoqubova Shahzoda Shuhrat qizi

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, tayanch doktorant (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyoviylik va dunyoviy davlat tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda huquqiy-siyosiy ahamiyati yoritiladi. Dunyoviylik tamoyilining inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi ahamiyati, davlat va din munosabatlarining o'zaro mustaqillik asosida tashkil etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, dunyoviy davlatning asosiy belgilari, qonun ustuvorligi, vijdon erkinligi va barcha fuqarolarning teng huquqliligi kabi tamoyillar keng yoritib beriladi. Bu orqali esa O'zbekistonda dunyoviy davlat prinsiplarining amal qilishi va uning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati haqida tushuncha hosil qilish mumkin.

Kalit so'zlar: sekulyarizatsiya, modernizatsiya, ratsionallashuv, institutsional differentsiatsiya, inson agentligi, ijtimoiy harakatlar, sekulyarizm, milliy davlat, kapitalizm, modernlik, diniy xilma-xillik, mafkura, ijtimoiy o'zgarish.

ПОНЯТИЯ СВЕТСКОСТИ И СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

Ёқубова Шахзода Шуҳрат кызы

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, базовый докторант (PhD)

Аннотация

В данной статье раскрываются сущность и содержание понятий светскости и светского государства, их роль в развитии общества, а также их правовое и политическое значение. Анализируется значение принципа светскости в обеспечении прав и свобод человека, а также организация взаимоотношений государства и религии на основе их взаимной независимости. Кроме того, подробно рассматриваются основные признаки светского государства, такие как верховенство закона, свобода совести и равноправие всех граждан. Это позволяет сформировать представление о реализации принципов светского государства в Узбекистане и их значении в процессе построения демократического общества.

Ключевые слова: секуляризация, модернизация, рационализация, институциональная дифференциация, человеческая субъектность, социальные движения, секуляризм, национальное государство, капитализм, модерн, религиозное многообразие, идеология, социальные изменения.

THE CONCEPTS OF SECULARISM AND THE SECULAR STATE

Yoqubova Shahzoda Shuhrat qizi

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Doctoral Researcher (PhD)

Abstract

This article examines the essence and content of the concepts of secularism and the secular state, their role in social development, and their legal and political significance. It analyzes the importance of the principle of secularism in ensuring human rights and freedoms, as well as the organization of relations between the state and religion on the basis of mutual independence. Furthermore, the article discusses the main characteristics of a secular state, including the rule of law, freedom of conscience, and equal rights for all citizens. Through this analysis, it is possible to gain an understanding of the implementation of secular state principles in Uzbekistan and their importance in building a democratic society.

Keywords: secularization, modernization, rationalization, institutional differentiation, human agency, social movements, secularism, nation-state, capitalism, modernity, religious diversity, ideology, social change.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat va davlat taraqqiyotida dunyoviylik tamoyili muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda dunyoviy davlat prinsiplari alohida o'rin tutadi. Dunyoviy davlat — bu barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlaydigan, dinni davlat ishlaridan ajratgan holda faoliyat yuritadigan demokratik boshqaruv shaklidir.

“Dunyoviylik” tushunchasi jamiyat hayotida diniy va dunyoviy qadriyatlarining o'zaro

uyg'unligini anglatib, insonning vijdon erkinligini kafolatlaydi. Bunday davlatda har bir shaxs o'z diniy e'tiqodiga ega bo'lish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egadir. Shu bilan birga, davlat barcha din va konfessiyalarga nisbatan xolis munosabatda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillik yillaridan boshlab dunyoviy davlat qurish yo'lini tanladi. Konstitutsiya va qonunlarda davlatning dunyoviylik tamoyili mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy bag'rikengligi kafolatlangan. Shu bois mazkur mavzuni o'rganish dunyoviy davlatning mohiyatini anglash, uning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi ahamiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvi jamiyatning mahsuli bo'lganligi sababli, davlat boshqaruviga oid ta'limotlarning tarixi Sharq mutafakkirlarining jamiyat haqidagi qarashlari va ularning ta'limotlarida o'z aksini topgan. Aslida davlat ham, davlat boshqaruvi ham jamiyatning ajralmas qismidir. Shuning uchun davlatchilik va davlat boshqaruvi tarixini jamiyatning umumiy tarixiga bog'liq bo'lgan, uni aniqlashtirib hamda to'ldirib boruvchi bir qismi deb hisoblash mumkin.

Musulmon dunyosining etnik kelib chiqishi, tarixiy zamini va geografik joylashuvi jihatidan xilma-xilligi sekulyarizatsiyaning tarqalish ko'lami, shiddati va tezligiga ta'sir qilsa-da, bu jarayonni musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil etuvchi barcha jamiyatlarda kuzatish mumkin. Niyoz Berkes sekulyarizatsiya nazariyasining konseptual vositalarini Turkiyadagi sekulyarizatsiyani ijtimoiy-ilmiiy jihatdan o'rganishga tatbiq etgan ilk olimlardan biri edi. Uning fikricha, sekulyarizatsiya — bu musulmon dunyosini ham qamrab olgan, butun dunyo bo'ylab tarqalayotgan, o'z-o'zidan rivojlanadigan chiziqli va universal ijtimoiy o'zgarish jarayonidir [1; 235–236-b.].

N. Berkes o'zining "The Development of Secularism in Turkey" asarining kirish qismida sekulyarizatsiyani ijtimoiy o'zgarish jarayoni sifatida, sekulyarizmni esa mafkura (doktrina) sifatida bir-biridan farqlaydi. Uning fikricha, bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq bo'lsa-da, u sekulyarizatsiyani sekulyarizm yoki sekulyaristlar faoliyati natijasi deb hisoblamaydi [2; 87-b.].

Berkes uchun sekulyarizatsiya — insonlar nazoratidan tashqari omillar ta'sirida ro'y beradigan universal jarayondir. Biroq sekulyarizatsiyaga berilgan javoblar universal emas, chunki sekulyarizatsiya tufayli yuzaga kelgan muammolarga nisbatan munosabatlar juda xilma-xil bo'ladi. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, Berkes sekulyarizatsiyani inson agentligiga bog'lamaydi.

Shu bilan birga, u sekulyarizatsiya rivojiga qarshi javoblar va reaksiyalarda inson agentligini ko'radi. Bu sekulyarizatsiya nazariyasining sekulyarizatsiya va diniy tiklanish harakatlariga nisbatan xos yondashuvdir. Ya'ni, sekulyarizatsiya inson irodasidan mustaqil ravishda rivojlanadi, ammo unga qarshi harakatlar uning kengayishini to'xtatish yoki ortga qaytarishga qaratilgan ongli harakatlar natijasi sifatida qaraladi.

Yana bir farq shundaki, musulmon dunyosida modernizatsiya va sekulyarizatsiya o'rtasidagi bog'liqlik G'arbdagidan ham kuchliroq tarzda shakllantirilgan. Boshqacha aytganda, musulmon dunyosida modernizatsiya va sekulyarizatsiya tushunchalari ko'p hollarda o'zaro almashtirib ishlatiladi.

Albatta, ingliz tilida va akademik adabiyotlarda bu tushunchalar o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud. Ammo, mening fikrimcha, musulmon dunyosida, ayniqsa Turkiyada, ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi o'xshashlik ancha kengroq bo'lgan. Darhaqiqat, usmonli turk tilida "zamonaviylashish" yoki "modernizatsiyalashish" ma'nosini anglatuvchi *muasirlasma* va uning zamonaviy varianti bo'lgan *çagdaşlaşma* tushunchalari bir vaqtning o'zida ham modernizatsiyani, ham sekulyarizatsiyani anglatadi.

So'nggi yillarda, aniqrog'i, sekulyarizatsiya nazariyasining ta'siri susaygandan keyin, turk akademik nashrlarida modernizatsiya va sekulyarizatsiya tushunchalari o'rtasidagi farq konseptual darajada kengroq ajratila boshlandi.

G'arb bilan solishtirganda, musulmon dunyosining zamonaviy tarixiga sekulyarizatsiya nazariyasi yoki unga o'xshash yondashuvlarni qo'llashda muhim farq mavjud. Bu farq shundaki, G'arb haqidagi tadqiqotlarda olimlar ko'proq modernizatsiya va sekulyarizatsiyaning qanday qilib muvaffaqiyatli amalga oshganini tushuntirishga uringan bo'lsalar, musulmon dunyosi haqidagi tadqiqotlarda esa bu jarayon nima uchun to'liq rivojlanmaganini izohlashga ko'proq e'tibor qaratilgan.

V. Veykir [13; 128–130-b.] yozishicha, usmonlilar modernizatsiyaning muqarrar ekanligi bilan bog'liq chaqiriqqa duch kelishgan. Biroq ushbu modernizatsiya loyihasi to'liq muvaffaqiyatli bo'lmagan. Bunga sabablardan biri sifatida modernizatsiya jarayonini amalga oshiruvchi amaldorlar orasida yetarli darajada qat'iy siyosiy irodaning yo'qligi ko'rsatilgan. Ular hokimiyat tepasiga kelgan paytda allaqachon an'anaviy va diniy usmonli qadriyatlar tizimiga singib ketgan edilar. Shu bilan birga, ular o'z mavqei va kuchini yo'qotishdan xavotirda bo'lib, keng qamrovli modernizatsiya islohotlari bu imtiyozlarga tahdid

solishi mumkin, deb hisoblashgan.

Shu kabi yondashuv Jakob M. Landau [9; 147-b.] tomonidan ham bildirilgan bo'lib, u imperiyaning chekka hududlaridagi kuchli provinsial xonadonlar o'z imtiyozlaridan mahrum bo'lish xavfi tufayli o'zgarishlarga qarshi chiqqanini ta'kidlaydi.

1980-yillardan boshlab G'arbda, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlarida, dinning yo'qolishi haqidagi sekulyarizatsiya nazariyasining asosiy taxminlari empirik tadqiqotlar tomonidan shubha ostiga olindi va uning sotsiologiyadagi ta'siri ancha pasaydi. Shunga qaramasdan, ayrim zamonaviy olimlar, masalan, Frank J. Lechner [10; 228–229-b.] va Steve Bruce [5; 70–71-b.], dinning pasayishi haqidagi sekulyarizatsiya nazariyasi prognozlarini hanz dolzarb ekanini ta'kidlab kelmoqdalar.

J. Kasanova [11; 113–114-b.] esa nazariyani boshqacha talqin qilib, sekulyarizatsiya dinning umumiy pasayishi emas, balki "diniy hokimiyat ta'sir doirasining qisqarishi" ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, shu ma'noda sekulyarizatsiya hanz keng tarqalgan jarayondir.

Steve Bruce [6; 56-b.] esa ancha radikal pozitsiyani egallab, o'z asarlarida sekulyarizatsiya nazariyasining asosiy g'oyalarini himoya qilishga harakat qilgan. U sekulyarizatsiyani universal va chiziqli tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Bruce fikricha, Reformatsiya harakati (*Protestant Reformation*) zamonaviy sekulyar jamiyatlarning shakllanishida muhim omil bo'lib, ratsionallikning kuchayishiga xizmat qilgan. Bu esa keyinchalik pozitivistik fanlar, zamonaviy texnologiyalar va kapitalizmning rivojlanishiga zamin yaratgan. Kapitalizm iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy va tuzilmaviy differentsiatsiyani ham kuchaytirgan.

Ushbu jarayonlar natijasida ijtimoiy, madaniy va diniy xilma-xillik kengaygan, bu esa dinning jamiyat hayotidagi ta'sir doirasining qisqarishiga olib kelgan. P. L. Berger [4; 37–38-b.] va B. R. Wilson [16; 82–84-b.] kabi olimlar qatorida Bruce ham dinning shaxsiylashuvi va uning ijtimoiy ta'sir doirasining torayishini dinning pasayganini ko'rsatuvchi muhim dalillardan biri sifatida baholaydi.

Oxir-oqibat, diniy xilma-xillik sekulyar davlatlar va liberal demokratiyalarning rivojlanishiga ham turtki bergan.

Mening fikrimcha, sekulyarizatsiya nazariyasi asosan idealizm va progressizm tushunchalarining noaniqligi bilan tavsiflanadi. Sekulyarizatsiya nazariyasi tarafdorlari institutsional differentsiatsiyani institutsional avtonomiya bilan tenglashtirganlar. Ular zamonaviy davrda jamiyat institutlari o'rtasidagi chegaralar yanada aniqroq shakllanganini ta'kidlaydilar. Ta'lim, iqtisodiyot, harbiy tizim, siyosat, din va ommaviy axborot vositalari o'ziga xos funksiyalarga ega bo'lgan alohida institutlar sifatida shakllangan.

Ushbu jarayonlar natijasida yirik ijtimoiy institutlar muayyan darajada avtonomiyaga ega bo'ldi. Shu asosda sekulyarizatsiya nazariyasi tarafdorlari din endilikda boshqa institutlarga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi, degan xulosaga kelganlar. Bunday yondashuvlar ma'lum tarixiy davrda institutsional differentsiatsiya natijasida dinning boshqa ijtimoiy institutlar ustidan ustun mavqeini yo'qotgani ma'nosida qisman qabul qilinishi mumkin.

Biroq sekulyarizatsiya nazariyachilari har qanday dunyoviy mafkura yoki nodiniy institutning boshqa institutlar ustidan ustunlikka erishishi ehtimolini yetarli darajada hisobga olmaganlar. Masalan, sekulyarizm mafkurasi zamonaviy davrning eng keng tarqalgan g'oyalaridan biri bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra dinning jamiyat hayotidagi ta'sirini cheklashga qaratilgan tendensiyalarga ega.

Milliy davlatlar tabiatan unitar xarakterga ega bo'lib, ular markazlashgan boshqaruv asosida faoliyat yurituvchi ta'lim, iqtisodiyot, harbiy tizim va boshqa institutlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli ular ko'pincha o'z siyosati va dasturlarini boshqa institutlar manfaatlaridan ustun qo'yishga intilganlar.

Shu bilan birga, din avvalgidek boshqa institutlar ustidan to'liq ustunlikka ega bo'lmasa-da, u hanzgacha sekulyar davlatlarning mafkuraviy yo'nalishiga nisbatan muqobil va potensial raqobatchi kuch sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat ko'plab milliy davlatlarning nima sababdan dinni cheklashga yoki uni qat'iy nazorat ostida ushlab turishga intilganini izohlashga yordam beradi. P. Berger qayd etganidek, sekulyarizatsiya nazariyasi vakillarining aksariyati milliy davlatlarning sekulyarizatsiya jarayonidagi hal qiluvchi rolini yetarli darajada baholamaganlar.

Bundan tashqari, nazariya tarafdorlari sekulyarizatsiyani inson agentligidan mustaqil ravishda kechadigan abstrakt sotsiologik jarayon sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, kapitalizmning rivojlanishi, sanoatlashuv, ratsionallashuv, institutsional differentsiatsiya va madaniy xilma-xillikning ortishi sekulyarizatsiyaning kengayishini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lgan (Peter L. Berger [3; 443–454-b.], Bryan R. Wilson [15; 128–130-b.]).

B. Steve [5; 210–211-b.] esa sekulyarizatsiyaga olib kelgan omillar ro'yxatini yanada kengaytirib, uning kutilmagan natija sifatida shakllanganini ta'kidlaydi. U struktur differentsiatsiya,

individualizm, sotsializatsiya, iqtisodiy o'sish, fan, texnologiya va relyativizm kabi omillarni keltiradi. Biroq u bu omillar jamiyatga aynan qanday amaliy mexanizmlar orqali ta'sir qilishini to'liq ochib bermaydi.

Shu tarzda, u ham boshqa sekulyarizatsiya nazariyasi himoyachilari kabi, sekulyarizatsiyani tavsiflashda agentlik masalasini yetarlicha ochiq qoldiradi. Ya'ni, bu jarayonlar ortida muayyan mafkuraviy pozitsiyalar, siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlar bilan harakatlanuvchi ongli ijrochilar tomonidan boshqarilganmi-yo'qmi, degan savolga yetarli e'tibor qaratilmaydi.

Kapitalizmning kengayishini uning ortida turgan kapitalistik manfaatlarini hisobga olmasdan sotsiologik o'zgarishning sababi sifatida ko'rsatish real vaziyatning muhim qismini yashiradi. Shuningdek, institutsional differentsiatsiyaning o'sishi haqida gapirishda bu institutlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi manfaatdor guruhlar va ularning dasturlarini inobatga olmaslik ham tahlilning muhim bir tarkibiy qismini yashiradi. Jamiyatning boshqa institutlaridagi sekulyarlashuv jarayoni ham bundan istisno emas.

Deyarli barcha yirik nazariya tarafdorlari sekulyarizatsiyani makro-sotsiologik nuqtai nazardan yondashib o'rganganlar, ammo abstraksiyaga berilib, inson agentligi hamda ijtimoiy harakatlar dinamikasini o'z konsepsiyalariga kiritmaganlar. Mening fikrimcha, bu kamchilik, boshqa omillar qatorida, zamonaviy progressistik mafkuraning ta'siri bilan bog'liq.

Bu olimlarning qarashida din jamiyatga o'z voqelik modelini qurib, uni keng jamiyatga singdirgan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ratsionallashtirish, sanoatlashtirish va institutsional differentsiatsiyaning o'sishi esa o'z-o'zidan dindand ozod bo'lish jarayonini boshlab bergan deb hisoblanadi.

Bergerning fikricha: "Sekulyarizatsiya o'zini xristian cherkovlari tomonidan avval ular nazorati va ta'siri ostida bo'lgan sohalaridan cheklanib chiqishda namoyon qiladi — masalan, cherkov va davlatning ajralishida, cherkov yerlarining musodara qilinishida yoki ta'limning diniy (cherkoviy) hokimiyatdan ozod etilishida". Berger sekulyarizatsiya qanday ijtimoiy-madaniy jarayonlar va guruhlar orqali amalga oshirishini to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilganda, u "sanoat jamiyatining o'zi sekulyarlashtiruvchi kuchdir" deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, sanoat ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlik va u bilan bog'liq hayot tarzi ham sekulyarizatsiyani belgilovchi omil bo'lishi mumkin [2; 98–100-b.].

Niyoz Berkes ham shunga o'xshash yondashuvni musulmon dunyosidagi sekulyarizatsiya tadqiqotlariga tatbiq etgan holda, sekulyarizatsiyani "ijtimoiy qadriyatlarining din hokimiyatidan chiqarilib, jamiyat hayotining turli sohalarining muqaddas qoidalar hukmronligidan ozod bo'lishi" deb ta'riflaydi. Din ta'siridan birinchi bo'lib ajralgan sohalar sifatida fan, texnologiya va iqtisodiyot ko'rsatiladi [1; 156–157-b.].

Shu ma'noda, sekulyarizatsiya diniy dunyoqarash asosida qurilgan "sehrli" (*enchanted*) dunyodan faqat dinni dekonstruksiya qilish orqali ajralib chiqish jarayoni sifatida tushuniladi. Bu yerda u muqobil dunyoni qurish emas, balki diniy dunyoqarashning ta'sirini yo'qotishni anglatadi. Shu kabi yondashuvlarda sekulyarizatsiya ko'pincha "erkinlikka o'tish" va "g'ayritabiiylikdan oddiy ratsionallikka o'tish" sifatida talqin qilinadi.

Shu bois Berger sekulyarizatsiyani dinning yo'qligi sifatida ta'riflagan [2; 78–80-b.]. Shuningdek, B. R. Wilson uni "tabiat va jamiyatni afsonaviy, poetik va diniy talqin qilishdan voz kechib, faktik tavsifga o'tish" sifatida tushungan [15; 67–68-b.]. Steve Shiner esa uni "dunyoning muqaddasligini yo'qotishi" (*desacralization*) deb baholagan [7; 129-b.].

Biroq ushbu olimlarning hech biri dinni "sekulyarizatsiyaning yo'qligi" yoki "sekulyar holatning yo'qligi" sifatida ta'riflamagan. Agar sekulyarizatsiya biror narsaning yo'qligi deb tushunilsa, u holda u konstruksiya emas; konstruksiya bo'lmasa, uning ortida inson agentligini izlashga ham ehtiyoj qolmaydi. Agar inson agentligi mavjud bo'lmasa, sekulyarizatsiyani jamoaviy harakatlar bilan bog'lab o'rganish ham ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Shu sababli sekulyarizatsiya nazariyasi asosan dinni ta'riflagan.

Sekulyarizatsiya nazariyasi din haqidagi tushunchani zamonaviy va progressistik mafkuraviy pozitsiyaga mos ravishda shakllantirgan. Bunday yondashuvlar esa ko'plab boshqa ijtimoiy olimlar tomonidan ham qabul qilinib, tabiiy holat sifatida qaralgan.

Bu yondashuvga ko'ra, sekulyarizm tarixda avvaldan mavjud bo'lgan mafkura yoki harakat emas, balki keyingi asrlarda yuzaga kelgan sotsiologik transformatsiyalarning kutilmagan natijasidir. Bu esa sekulyarizatsiya tarixida inson agentligining roli to'liq inkor etilmasa-da, yetarli darajada hisobga olinmaganini anglatadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, har qanday ijtimoiy hodisa tarixda muayyan boshlanish nuqtasiga ega va zamonaviy jamiyatlar turli xil ijtimoiy harakatlarning paydo bo'lishiga guvoh bo'lgan.

Muammo shundaki, sekulyarizatsiya nazariyasi sababiy bog'liqlikni sekulyarizatsiya bilan

abstrakt “modernlik” tushunchasi o‘rtasida o‘rnatadi, holbuki bu tushunchaning o‘zi mustaqil agentlikka ega emas. Bunday tushunchalar inson ongida shakllanadigan konstruksiyalar va abstraksiyalardir. Biz ulardan kuzatuvlarimizni samarali tavsiflash va uzatish uchun foydalanamiz, ammo ularga sababiy kuchni inson omili hisobga olinmasdan berib yuborish noaniq va chalg‘ituvchi bo‘ladi. Shu sababli biror hodisaning, xususan sekulyarizatsiyaning sababini faqat modernizatsiyaga bog‘lash mantiqan to‘g‘ri emas.

Misol sifatida bunday tushunchalardagi noaniqlikni yaxshiroq ko‘rsatish uchun globallashuv holatini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Globallashuv ham modernizatsiya kabi konsepsiyadir. Sotsiologlar ko‘pincha “globallashuv butun dunyo bo‘ylab tengsizlikni kuchaytirdi” kabi iboralarni ishlatadilar.

Bunday bayonotlar, agar ular globallashuv bilan boshqa sotsiologik hodisalar, masalan, iqtisodiy tengsizlikning ortishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatsa, muammoli emas. Biroq, agar ular abstrakt tushuncha — bu holatda globallashuvga — inson agentligidan xoli ravishda sababiy kuch bersa, ular shubhali bo‘ladi.

Boshqacha aytganda, biz globallashuv va tengsizlikning o‘sishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini tan olishimiz mumkin. Shu bilan birga, nega tengsizliklar ortib borayotganini tushunish uchun globallashuv dinamikasini o‘rganish zarur. Bu esa International Monetary Fund va World Bank singari transmilliy hamda supramilliy institutlar faoliyatini tahlil qilishni anglatadi.

Bu institutlar va tashkilotlar esa ularni nazorat qiluvchi subyektlarning manfaatlari va mafkuralari asosida harakat qiladi.

Biroq, agar biz sekulyarizatsiya nazariyachilari qo‘llagan tilga o‘xshash tildan foydalansak, globallashuv va tengsizlik o‘rtasidagi munosabatni tushuntirish uchun “neoliberalizm”, “eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘sish modellari”, “milliy chegaralarning zaiflashuvi” va “ijtimoiy davlat siyosatining tanazzuli” kabi omillarni aybdor sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

Bunday noaniq va umumiy til esa globallashuvning kengayishi hamda tengsizlikning ortishida inson agentligining rolini yashiradi. Ijtimoiy davlat siyosati va milliy chegaralar tasodifan yo‘qolib ketmagan, shuningdek eksportga yo‘naltirilgan modellar ham boshqa hodisalarning tasodifiy natijasi sifatida paydo bo‘lmagan.

Aksincha, bu jarayonlarning ko‘pchiligi, shu jumladan yuqorida misol tariqasida keltirilgan omillar va ularning oqibatlari, globallashuv kuchlarining ongli harakatlari natijasidir.

Xuddi shu kabi, sekulyarizatsiya va modernizatsiya o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi haqida ham gapirish mumkin. Sekulyarizatsiyani to‘g‘ri tushunish uchun modernlik dinamikasini anglash, bu esa modernizatsiya qiluvchi kuchlar rolini tahlil qilishni talab etadi.

Biroq inson agentligini hisobga olmasdan turib, modernizatsiyaning turli jihatlari bilan sekulyarizatsiya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy bog‘lanish o‘rnatish mantiqan to‘g‘ri emas.

Max Weber, Bryan R. Wilson va Steve Bruce kabi sekulyarizatsiya hamda modernizatsiya nazariyachilari asarlarida bir muhim ichki ziddiyat mavjud. Ular, bir tomondan, zamonaviy davrni ratsionallashuv davri sifatida tavsiflaydilar. Ratsionallashuv esa hisob-kitob, samaradorlik va rejalashtirishga asoslangan jarayon bo‘lib, u insonlarning ongli qarorlari va tanlovlari orqali amalga oshadi.

Bu ma‘noda ratsionallashuv inson ongidan mustaqil, tashqi bir hodisa emas, balki inson faoliyati orqali namoyon bo‘ladigan jarayondir. Masalan, Weber tomonidan tasvirlangan ratsional byurokratik institutlar — bu ularni qayta tashkil qilish yoki yaratish haqida qaror qabul qilgan insonlarning ongli tanlovlari natijasidir.

Max Weber [12; 45-b.] ta‘riflaganidek, byurokratik yoki boshqa turdagi institutlar individual subyektlardan farqli xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo ular inson agentligidan mustaqil ravishda shakllanmaydi. Hatto institutlarning shakllanishi va faoliyatida ziddiyatlar yuzaga kelganda ham inson omili doimo mavjud bo‘ladi.

Kelishuvlar, muzokaralar, murosalar va qarshiliklar — bularning barchasi insonlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va tanlovlarni o‘z ichiga oladi. Biroq shu bilan birga, sekulyarizatsiya nazariyachilari ratsionallashuvni inson ongi orqali amalga oshadigan jarayon sifatida tushuntirgan holda, sekulyarizatsiyani ko‘pincha abstrakt jarayon sifatida, ya‘ni aniq inson agentligidan uzilgan holda talqin qiladilar. Bu esa ularning nazariy yondashuvida ichki izchillik muammosini yuzaga keltiradi.

Xulosa

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sekulyarizatsiya nazariyasi zamonaviy sotsiologiyaning eng ta‘sirli nazariy yondashuvlaridan biri bo‘lib, u dinning zamonaviy jamiyatlardagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirishga harakat qilgan. Emile Durkheim, Max Weber, Peter Berger, Bryan Wilson va Steve Bruce kabi olimlar modernizatsiya, ratsionallashuv, institutsional differentsiatsiya va kapitalizmning rivojlanishi

natijasida dinning ijtimoiy ta'siri pasayib borishini ta'kidlaganlar.

Biroq mazkur nazariya qator nazariy va metodologik muammolarni ham o'z ichiga oladi. Eng avvalo, sekulyarizatsiya ko'pincha abstrakt ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinib, inson agentligi, ya'ni muayyan guruhlar, siyosiy kuchlar va ijtimoiy harakatlarning roli yetarli darajada hisobga olinmagan. Nazariya tarafdorlari modernizatsiya va ratsionallashuvni sekulyarizatsiyaning asosiy sababi sifatida ko'rsatgan bo'lsalar-da, ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchi insonlar, institutlar va mafkuraviy kuchlarning ta'sirini ko'p hollarda chetlab o'tganlar.

Shuningdek, sekulyarizatsiya nazariyasi sekulyarlikni tabiiy va universal holat sifatida qabul qilib, dinni esa "qo'shimcha" yoki "chekinib borayotgan" hodisa sifatida talqin qilgan. Bu esa sekulyarlikning o'zi qanday ijtimoiy va siyosiy konstruksiya ekanini yetarli darajada tahlil qilmaslikka olib kelgan. Ayniqsa, milliy davlatlar, sekulyar mafkuralar va modernizatsiya siyosatlarining dinni cheklash yoki uni xususiy hayot doirasiga surishdagi roli nazariyada to'liq ochib berilmagan. Bu borada José Casanova va Christian Smith kabi olimlar sekulyarizatsiya nazariyasining cheklangan jihatlarini tanqid qilganlar.

Musulmon dunyosiga nisbatan qo'llanilganda esa sekulyarizatsiya nazariyasi yanada murakkab tus olgan. Niyazi Berkes kabi tadqiqotchilar modernizatsiya va sekulyarizatsiyani o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida talqin qilganlar. Bu yerda tadqiqotlar asosan modernizatsiyaning nima uchun "to'liq amalga oshmagani"ni tushuntirishga qaratilgan bo'lib, G'arbdagi kabi dinning tez orada yo'qolishi haqida qat'iy prognozlar berilmagan.

Shu sababli, sekulyarizatsiyani tushunishda inson agentligi, ijtimoiy harakatlar, siyosiy manfaatlar va mafkuraviy kurashlarni markaziy o'ringa qo'ygan yangi yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Sekulyarizatsiya faqat modernizatsiyaning avtomatik natijasi emas, balki muayyan tarixiy sharoitlarda faoliyat yuritgan insonlar, davlatlar, institutlar va ijtimoiy kuchlar ta'sirida shakllangan murakkab ijtimoiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berkes N. The Development of Secularism in Turkey. Montreal: McGill University Press, 1964.
2. Berger P. L. The Sacred Canopy: Elements of a Sociological Theory of Religion. New York: Anchor Books, 1967.
3. Berger P. L. Reflections on the Sociology of Religion Today // Sociology of Religion. 2001. Vol. 62. No. 4. P. 443–454.
4. Berger P. The Desecularization of the World: Resurgent Religion and World Politics. Washington, D.C.: Ethics and Public Policy Center, 2006.
5. Bruce S. God Is Dead: Secularization in the West. Oxford: Blackwell, 2002.
6. Bruce S. Secularization: In Defense of an Unfashionable Theory. Oxford: Oxford University Press, 2013.
7. Shiner L. The Concept of Secularization in Empirical Research // Journal for the Scientific Study of Religion. 1967. Vol. 6. P. 207–220.
8. Nişanyan Etymological Dictionary of Turkish Language. URL: <http://www.nisanyansozluk.com> (accessed: 30.11.2013).
9. Landau J. M. Pan-Turkism: From Irredentism to Cooperation. Bloomington, IN: Indiana University Press, 1995.
10. Lechner F. J. The Case Against Secularization: A Rebuttal // Social Forces. 1991. Vol. 69. No. 4. P. 1103–1119.
11. Casanova J. The Secular, Secularizations, Secularisms // Rethinking Secularism / ed. by C. Calhoun, M. Juergensmeyer. Oxford: Oxford University Press, 2011.
12. Weber M. The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism. Charleston, SC: CreateSpace Independent Publishing Platform, 2012.
13. Weiker W. F. The Ottoman Bureaucracy: Modernization and Reform // Administrative Science Quarterly. 1968. Vol. 13. No. 3. P. 451–470.
14. Wilson B. Religion in Sociological Perspective. Oxford: Oxford University Press, 1982.
15. Wilson B. R. Religion in Secular Society. New York: Penguin Books, 1969.